

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----



UO'K: 101.1

YANGI O'ZBEKISTONDA AXLOQIY VA DINIY QADRIYATLARNI YAKDIL MAQSADGA YO'NALTIRISHNING ISTIQBOLLI VAZIFALARI

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЗАДАЧИ НАПРАВЛЕНИЯ МОРАЛЬНЫХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ К ОБЩЕЙ ЦЕЛИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

PROSPECTIVE TASKS OF DIRECTING MORAL AND RELIGIOUS VALUES TO A COMMON GOAL IN NEW UZBEKISTAN

Xaydarova Shaxnoza Murataliyevna 

Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada globallashuv davrida axloqiy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatni o'rganishning nazariy asoslari, globallashuv davrida axloqiy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatning dialektik tahlili, globallashuv davrida axloqiy va diniy qadriyatlarning istiqboldagi munosabatlarning muammo va yechimlari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье излагаются теоретические основы исследования диалектических взаимоотношений нравственных и религиозных ценностей в эпоху глобализации, проводится диалектический анализ диалектических взаимоотношений моральных и религиозных ценностей в эпоху глобализации, проблемы и изучаются пути решения будущего соотношения моральных и религиозных ценностей в эпоху глобализации. Также анализируется генезис понятия моральных и религиозных ценностей, научно-концептуальные основы.

Abstract

In the article, the theoretical foundations of the study of the dialectical relationship between moral and religious values in the era of globalization, the dialectical analysis of the dialectical relationship between moral and religious values in the era of globalization, the problems and solutions of the future relationship of moral and religious values in the era of globalization are studied. Also, the genesis of the concept of moral and religious values, scientific-conceptual bases are analyzed.

Kalit so'zlar: globallashuv davri, axloqiy va diniy qadriyatlar, dialektika, dialektik munosabat, ijtimoiy normalar, axloqiy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiylik tamoyili, qadriyatlar uyg'unligi, axloq va din globallashuvi.

Ключевые слова: эпоха глобализации, моральные и религиозные ценности, диалектика, диалектическое мироощущение, социальные нормы, нравственное мировоззрение, национальные и общечеловеческие ценности, принцип нравственности, гармония ценностей, глобализация морали и религии.

Key words: era of globalization, moral and religious values, dialectic, dialectical attitude, social norms, moral outlook, national and universal values, principle of morality, harmony of values, globalization of morality and religion.

KIRISH

Axloqiylik va diniylik o'rtasidagi nisbat masalasi insoniyat tarixining barcha davrlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Boshqacha aytganda, inson hayoti mazmunini tashkil qiluvchi ushbu ikki tarkibiy qismning konsensusga erishishi har qanday jamiyatning mavjud holati va istiqbolini belgilovchi bosh mezon bo'lib kelgan. Ba'zan ushbu ikki omil o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, mamlakatlarni to's-to'polonlar va jaholat girdobiga tortgan. O'rta asrlar Yevropasida amal qilgan, vahshiyona jazolar va qiynoqlarning timsoliga aylangan inkvizitsiya davri bunga misol bo'la oladi. Ibn Rushdning g'oyalarini rivojlantirgani uchun jazoga hukm etilgan Siger Brabantskiyning taqdiri, sog'lom ilmiy qarashlari tufayli jabr ko'rgan Jordano Bruno, Nikolay Kopernik, Nikolay Kuzanskiy va boshqa mutafakkirlarning qismati esa jamiyat hayotida diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi sog'lom muvozanatning shakllanishi yo'lidagi qiyinchiliklarga misoldir. Ushbu jarayonning fojiali ko'rinishlari musulmon Sharqi hayotida ham sodir bo'ldi. Buyuk mutasavvuf alloma Abu Mansur al-Halloj xudoning mohiyatini idrok etish yo'llari haqidagi ortodoksial aqidalarga zid qarashlari uchun o'tda yoqildi. Shunday sabablar tufayli Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Alo al-

FALSAFA

Maarriy, Umar Xayyom, Nasimiy kabi ko'plab buyuk daholar ayovsiz ta'qiblarga duchor bo'ldilar. Bularning barchasi dinni davlatdan ajratish bilan bog'liq tabiiy ehtiyoj kuchini oshirib borgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Axloqiylik va diniylik o'rtasidagi munosabatni o'rganish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Ularning yechimi borasidagi fikrlar ko'pgina mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan. Umuman jamiyat tafakkuri tarixida axloqiylik va diniylik o'zaro qarama-qarshi, bir-birini inkor qiluvchi tamoyillar sifatida tushunilib kelindi. Natijada ular o'rtasidagi munosabatlarda ham shunday ziddiyatli qarash hal qiluvchi rol o'ynadi. Mazkur masalalar I.V.Ponkin, S.D.Lebedev, K.Bagayeva, L.Syukiyaynen (Rossiya), G.Kremer, V.Shnayder-Deters, T.Nagel V.Bader (Germaniya), H.Yavuz, S.Ershohin (Turkiya), F.Kitcher, V.Furnyo (AQSH), A.Abdulla (Misr), A.Boynazarova, M.Abdurazzakova, Z.Minovarov, A.Qodirov, A.Mo'minov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dinni davlatdan ajratish haqidagi g'oya azaldan hurfikrlilik va dunyoviy-ratsionalistik tafakkur rivojiga asoslanganini ta'kidlash joiz. Ushbu hayotiy masala hozirgi O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan davlatlarda ham doimo muhim o'rin egallab kelgan. "O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi".

Bunda dunyoviylikka moyil siyosiy kuchlarning davlat va jamiyatni boshqarishdagi mavqei muntazam ravishda mustahkamlanib borgani diqqatga sazovordir. Movarounnahrning o'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi tarixida boshqaruvning diniy-teokratik usullariga moyil davlatlarning yo'qligi ham ushbu xulosaning o'rinli ekanini tasdiqlaydi. Demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan O'zbekistondagi ma'naviy hayotni tashkil etuvchi, uni birlashtirib turuvchi o'zak o'q – diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi. Xalq tomonidan asrlar osha e'zozlanib kelingan qadriyatlar tizimida diniy qadriyatlar alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston xalqi tomonidan azaldan ardoqlanib kelinayotgan qadriyatlarning aksariyatiga islomiy ruhiyat va sharqona odob-axloq chuqur singib ketgan.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan «...agar mendan, nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar osha bezavol yashab kelayapti, deb so'rashsa, bu avvalo muqaddas dinimiz hisobidan, deb javob bergan bo'lur edim», – deb ta'kidlangani ham ayni shu bilan izohlanadi. O'quvchi-talabalarda dinga nisbatan sog'lom munosabatni shakllantirish bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari oldida turgan eng murakkab va muhim vazifalardan biridir. Uning muvaffaqiyatli hal etilishi ikki muhim omilga bog'liq. Ularning har ikkalasi ham O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlarida ko'rsatib berilgan: «...har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlar faqat islom dini to'g'risida emas, umuman dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lsin. Ijtimoiy sohaga oid darslarda yoshlarga din bilan dunyoviy hayot masalalarini, bu ikki tushunchaning bir-biriga ta'sirini, ular o'rtasidagi mo'tadil munosabat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak», deya ta'kidlaydi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov. "Bizni o'zaro mushtarak tarixiy-madaniy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'lab keladigan musulmon dunyosi mamlakatlari bilan hamkorlikni bundan buyon ham mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz". Demak, dinlar haqidagi mantiqiy asoslangan bilimlarni shakllantirish va dunyoviylik tushunchasini chuqurlashtirib borish yoshlarda dinga nisbatan sog'lom munosabatni shakllantirishning ikki qutbi hisoblanadi. Mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri dunyoviylik ekan, uni qanday tushunish lozim, degan savol tug'iladi. Ingliz tilidagi «secularity» hamda rus tilidagi «sekulyarizatsiya» va «svetskost» tushunchalari bilan tutash ushbu istilohning qanday talqin etilishining o'ziyoq har qanday mamlakatdagi davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Sho'ro zamonida chiqarilgan aksariyat lug'atlarda «svetskost» va «sekulyarizatsiya» tushunchalari diniylikning aksi bo'lgan ijtimoiy xatti-harakatlar sifatida talqin etiladi. Bu esa, tabiiy ravishda, dahriylik targ'iboti va dinning hayotiy o'rnini inkor etishga olib kelar edi. Aslida esa, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «...dunyoviylik – bu dahriylik degani emas. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ayriinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz kechagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkuraning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davomida din negizida shakllangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar – bu yozma yoki og'zaki, moddiy yoki ma'naviy meros bo'ladimi, axloq yoki an'analar bo'ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo'ladimi – bularning barchasini rad etadi. Natijada

odamzod o'zining ichki dunyosi, his-tuyg'u va qarashlari, tayanib-suyanib turadigan poydevoridan mahrum bo'lib, «sho'ro dohiylari» aytganidek, ulkan davlat mashinasining «vintchasi»ga aylanadi. Oxir oqibatda bunday odam ota-onasini ham, o'z millati, xalqi va Vatanini ham tanimaydigan ayancli holatga tushib qoladi». Demak, tom ma'nodagi sog'lom dunyoviylik dinning ijtimoiy mavqeini inkor etmaydi, balki jamiyat hayotini tashkil etishning dunyoviy ma'rifatga asoslangan tarzini anglatadi. Boshqacha aytganda, dunyoviylik ijtimoiy hayot sohalari diniy aqidaning yakka hokimligidan va uning hal qiluvchi ta'siridan xoli bo'lishni taqozo etadi. «Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o'rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz. Shu maqsadda mamdakatimizdagi diniy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'riladi». Dunyoviylik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlari hamisha hamohanglik kasb etib kelgan. YA'ni, dunyoviylik qotib qolgan dogma emas, aksincha, u muntazam ravishda takomillashib boruvchi hodisadir. Zamonaviy ilmiy tilda aytganda, dunyoviylik modernizatsiya deb nomlanuvchi jarayonning harakatlantiruvchi kuchidir.

Bugungi kunda xorij falsafasida ham o'zining diniylik va dunyoviylik tushunchalari mavjud ekanligini yuqorida ko'rib chiqqan edik. Aslida bu tushunchalar o'rtasidagi farq G'arbiy Yevropada sekulyarizmning yuzaga kelish davrida paydo bo'lgan. YA'ni, davlat boshqaruvi va dinning ajralish jarayoni, ya'ni sekulyarizm axloqiylik va diniylikning o'zaro farqini aniqlab bergan. Chunki «dunyoviylik» atamasi aslida din yoki cherkovning yo'qligini emas, balki davlat manfaati va dunyoviy manfaatlar sohasiga tegishli ekanligini anglatadi. «Dunyoviylik» so'zi Yevropa madaniyatining «dunyoviy» va «diniy»ga bo'linishini ta'minlagan lotincha «saecularis» atamasining tarjimasidir. Demak xulosa sifatida aytilish mumkinki, sekulyarizm axloqiylik va diniylik bo'linishining ibtidosidir.

Qadimda axloqiylik va diniylik bir-biridan ajratilmagan, ya'ni har qanday dunyoviy xatti-harakatlar ilohiy taqdir bilan bog'langan va tushunilgan. Ilk xristianlikda dunyoviylikning asosiy tamoyillari mavjudligi allaqachon aniqlangan. Zotan, xristianlik dastlab nodavlat din sifatida paydo bo'ldi, shuning uchun u davlatni cherkovdan ajratish prinsiplariga, shuningdek vijdon erkinligi g'oyasiga ega bo'lib, fuqaroviy dunyoviy jamiyatni taklif qiladi. Lekin keyinchalik, xristianlik Rim imperiyasining davlat diniga aylangach, tabiiyki, dunyoviylik mafkurasi o'z ahamiyatini yo'qotdi va cherkov otalari diniy, diniy-dunyoviy hokimiyatning hukmronligini anglatuvchi teokratiyani o'rnatishga intildilar.

Uyg'onish va islohotlar davrida dunyoviylik g'oyasi ko'pgina gumanistlar, jumladan, Jovanni Bokachcho, Fransua Rable va Jordano Bruno kabi ko'pgina gumanistlar tomonidan rivojlantirildi. Ushbu faylasuflarning faoliyati antiklerikal xarakterga ega bo'lgan va ular insonni diniylikdan qutqarishga qaratilgan dunyoviy insonparvarlik g'oyalarini ilgari surganlar.

Shunday qilib, diniylikdan ozod bo'lgan dunyoviy hokimiyat jamiyatni samarali boshqarish vositasiga aylanishi kerak. Bular, Yevropa madaniyatining jamiyatni dunyoviyashtirishga qaratilgan dastlabki qadamlari bo'lib, oqibatda, Yevropa madaniyatining bir necha asrlar davomida kuchli de-xristianlashtirilishiga olib kelgan. Bu holat ayniqsa so'nggi bir necha o'n yilliklarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ko'pgina mamlakatlarda bugungi kunda cherkov va davlat o'rtasidagi quyidagi munosabatlar kuzatilmoqda. Bu so'zsiz, birinchi navbatda, davlat cherkovning odamlar ongiga kuchli ta'sir etish salohiyatiga ega ekanligi uchun uning dunyoqarashini shakllantirish va integratsion funksiyalaridan mahrum qilishni istaydi.

Ushbu rejimning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- davlat va uning organlari o'z fuqarolarining qaysi dinga e'tiqod qilish yoki qilmasliklarini nazorat qilish hamda buning hisobini yuritish huquqiga ega bo'lmaydi;
- davlat cherkovning ichki faoliyatiga aralashmaydi (agar cherkov amaldagi qonunni buzmasa);
- xususan, davlat diniy tashkilotlarning dinga e'tiqod qiluvchilar bilan munosabatlarida, shuningdek, diniy ehtiyojlarni qondirish uchun ajratilgan mablag'larni xarajat qilishida, ichki o'z-o'zini boshqarishida, diniy tashkilotlar organlarining o'zaro munosabatlarida diniy e'tiqodlar, urf-odatlar, diniy marosimlar va diniy ehtiyojlarni qondirishning boshqa shakllariga aralashmaydilar;
- davlat cherkovni moddiy yoki boshqa moddiy-texnik vositalar, jumladan moliyaviy jihatdan ta'minlamaydi;
- cherkov davlatning qandaydir vazifasini bajarmaydi;
- cherkov davlat ishlariga aralashmaydi, faqat fuqarolarning diniy huquqlari bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Davlat, o'z navbatida, cherkov va diniy idoralarning qonuniy faoliyatini himoya

FALSAFA

qiladi.

Shunday qilib, cherkov va davlatning ajratilishi ijtimoiy hayotni dunyoviy qadriyat hamda normalarga yo'naltirishni bildiradi.

XX asr xalqaro huquqiy aktlar bazasida vijdon erkinligining "liberal standarti" shakllangan. Ikkinchidan, o'zaro bog'liq bo'lgan elementlardan tashkil topgan tizimning huquqiy kategoriyasi bo'lib, ular orasida eng kam diniy huquqlarni ifodalovchi uchta guruh farqlanadi. Har qanday diniy e'tiqodni e'tirof etish huquqi, avvalo, shaxsning o'z diniy e'tiqodiga asosan harakatlanish, diniy birlashma tarkibida jamoaviy faoliyat huquqiga, fuqarolarning axborotni tarqatish erkinligi hisoblangan diniy e'tiqodlarni tarqatish kabi shaxsiy huquqlarini o'z ichiga oladi. Bu shuningdek, diniy sohada bag'rikenglik mavjudligini anglatadi, chunki "zamonaviy jamiyatning rivojlanishi insoniyatga bag'rikenglik tamoyillarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Buni aniq bir tarixiy davr talabi deb atash mumkin. Tolerantlik demokratik jamiyatning eng asosiy qadriyati hamda axloqiylik va diniylik muvozanatini ta'minlashning prinsiplaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sekulyarizm davlat va diniy tashkilotlarning ajralishini, ular faoliyatining aniq chegarasini belgilab beruvchi konsepsiyadir. Sekulyarizmning asosiy xususiyatlaridan biri, davlat va jamiyatning siyosiy faoliyatidagi har qanday diniy aralashuvlarni cheklaydi. Bu holat o'z o'rnida bugungi kunda global muammolardan biri bo'lgan siyosiy islom va radikalizmning oldini olishga, sekulyar davlatlarda diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бойназарова А. Ислам фалсафасида диний ва дунёвий илмлар уйғунлиги масаласи. – Тошкент, Тошкент ислом университети.(Афтореферат) ф.ф.н, 2009.
2. Боялиев Ж. Глобаллашув шароитида диний ва дунёвий мафкураларнинг ўзаро таъсири масаласи. Монография. Т.: ТДИУ, 2013.
3. Ёвкачев Ш. Политизация религии и проблема исламского экстремизма в современном Египте. (Афтореферат) к.п.н.-Т., 2000.
4. Маънавият: асосий тушунчалар луғати – Т.: "Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти" нашриёти. 2009. 173 бет.
5. Томпсон М. Философия религии / Пер. с англ. Ю. Бушуевой. – М.: ФАИРПРЕСС, 2001. ст 145